

Chirokchi . sh

2022 yil 24. sentabr

«Uzbektelekom» AKning Kashkadaryo filiali nomidan bundan buyon «Operator» deb ataluvchi, Qashqadaryo filiali Chirokchi Telekommunikatsiya bog'lamasi (operatorning nomlanishi)

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi (litsenziya bergan tashkilotning nomi)

tomonidan berilgan litsenziya va nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi Chirokchi Telekomunikatsiya bog'lamasi boshlig'i K.B.Turayev (rahbarning mansabi, ism-familiyasi)

timsolida bir tomondan,

Yuridik shaxs.	
Budjetdan mablag oluvchi tashkilot nomn,	<u>Турокчи тумани АКМ</u>
Manzili,	<u>Турокчи тумани Муस्ताқидлик - 78 уй</u>
Rahbar, F.I.SH.	<u>А. Каҳгарова</u>

bundan keyin «Abonent» deb nomlanuvchi ikkinchi tomondan quyidagi shartnomani shu haqda tuzdilar:

SHARTNOMA PREDMETI

Operator telefon aloqasining universal (asosiy) va qo'shimcha xizmatlarini ko'rsatish, Abonet esa mazkur xizmatlardan foydalanish, xamda xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

1.1. Abonent toifasi - budjet

1.2. Abonent 2022 yilda budjetdan mablag oluvchi tashkilotiga kursatilgan aloqa xizmatlari uchun quyidagi grafik asosida xak tulashni uz zimasiga oladi Jumladan:

Shartnomaning tuzilgan vaqtidagi umumiy yillik baxosi

Одмумул сумме

so'mni

tashkil

etadi.

2022 y jami	1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
	Yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentabr	oktabr	noyabr	dekabr
summa	<u>20000</u>	<u>20000</u>	<u>20000</u>									

1.3. Budjet tashkilotining yil davomida smeta xarajatlariga kiritiladigan uzgarishlar doirasida xizmat kursatuvchi, xizmat oluvchi va xizmat xakini tulovchilar tomonidan uzaro kelishilgan holda shartnoma summasiga uzgartirishlar kiritishga xaklidir.

2. OPERATORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Operatorning majburiyatlari:

2.1.1. Belgilangan sifat darajasida telefon aloqasi xizmatlarini o'z vaqtida ko'rsatish.

2.1.2. Ommaviy axborot vositalarida, Internet, aholi gavjum joylarda, elonlar berish yordamida korxonalar faoliyati, yangi ATS larni ishga tushirish, yangi xizmat turlari, telekommunikatsiya xizmatlari uchun belgilangan tariflarning o'zgarishi va bu xizmatlarni ko'rsatish tartiblari haqida xabar berish.

2.1.3. Universal xizmatlarga tariflar o'zgartirilgan kamida 15 kun oldin ommaviy axborot vositalarida elon qilish.

Abonentning aybisiz telefon aloqasi buzilganda abonent tomonidan tamirlash byurosiga talabnoma tushgan vaqtdan boshlab abonent uskunasi ishlamagan kunlar uchun abonent to'lovlarini qayta hisoblab chiqish. Qayta hisob-kitoblar ma'lumot ro'yxatga olingan kundan etiboran soat 00.00 dan boshlab to'liq sutkalar uchun amalga oshiriladi. Texnik sabablarga ko'ra abonent raqamining o'zgarishini kamida 10 kun oldin abonentga yozma ravishda malum qilish. O'rnatilgan tartibda mahalliy telefon so'zlashuvlari to'g'risidagi malumot-rasshifrovka (detalizatsiya)ni qo'shimcha to'lov evaziga Abonentga berish.

Abonent tomonidan sotib olingan telematik xizmatlar (telefaks, teleks, vedeoteks va hokazolar)ning oxirgi uskunalarini shartnomaga qo'shimcha kiritgan holda (8-bo'limga binoan) ro'yxatdan o'tkazish.

Operator, shuningdek, «Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarida telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarida»da belgilab berilgan boshqa bir qator majburiyatlarga ham ega (bundan keyin matnda «Qoidalar»).

Operator kursatilgan xizmatlar xisob-varak fakturalarini xar oyda budjet tashkilotiga takdim etib borish majburiyatini oladi.

Operatorning xuquqlari:

2.2.1. Yangi telefon stansiyalari ishga tushishi va telefon tarmoqlari rekonstruksiya qilinishi munosabati bilan amaldagi «Qoidalar»ga muvofiq Abonentning ruxsatisiz, ammo unga o'z vaqtida xabar bergan holda, telefon raqamini bepul o'zgartirib qo'yish.

2.2.2. Operator abonent liniyalariga tegishli sertifikatini bo'lmagan uskunalar (telefon apparatlari, telematik xizmat uskunalarini, axborot uzatgichlar, radiotelefonlar, radiouzaytirgich, PK, AON va boshqalar)ni o'chirtirishni operatorning texnik komissiyasi tomonidan dalolatnoma tuzilgandan so'ng Abonentdan talab qilish.

2.2.3. Quyidagi hollarda abonent uskunasi telefon tarmog'iga ulanishini to'xtatish:

mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi uchun 4.6., 4.6.1.-bandlarga asosan aloqa xizmatlari to'lovlari to'lanmaganda (bunda telefon aloqasini uzish haqida abonent kamida 3 kun oldin telefon bilan ogohlantirilishi zarur); abonent tomonidan oxirgi qurilmalarni ishlatish qoidalarini buzilganda va buning natijasida operator kommutatsion uskunalarning normal ishlashiga xalaqit bergan hollarda;

3.1.7.-band buzilganda, operator texnik komissiyasining dalolatnomasi tuzilib, buzilishlar bartaraf etilgunga qadar. Shartnomani qayta tiklash va oxirgi qurilmalarni ulash belgilangan tartibda, kamchiliklar tuzatib bo'lingandan so'ng va Abonent tomonidan mahalliy, shaharlararo, xalqaro telefon aloqasining telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun haq to'langandan keyin amalga oshiriladi (aloqa xizmatlaridan foydalanish to'xtatib qo'yilgan muddat ham kiradi).

Agar Abonent hisob-kitob davridan keyin 2 oy davomida telefon aloqasi xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirmasa yoki 3.1.7.-bandlarni buzishga yo'l qo'ysa, ushbu shartnoma bir tomonlama bekor qilinadi.

Operator «Qoidalar»da belgilab berilgan boshqa bir qator huquqlarga ham ega.

ABONENTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Har chorakda kamida 1 marta Operator bilan o'zaro hisob-kitoblarni aniqlash maqsadida solishtirish dalolatnomasi tuzish.

3.2. Operator hisobidagi yoki u tomonidan ta'mirlanadigan Abonent foydalaniladigan uy telefon simlari va boshqa uskunalarni ishga yaroqli holatda saqlash. Abonentga tegishli bo'lgan yoki Abonent tomonidan ijaraga olingan telekommunikatsiya vositalarining texnik meyorlarga muvofiq bo'lishini ta'minlash.

3.3. Aloqa buzilishlari haqida telekommunikatsiya bog'lamasining ta'mirlash byurosiga o'z vaqtida xabar berish.

3.4. Korxonaning nomi, rekvizitlari o'zgarib, xonani ijaraga berish bo'yicha, bir oy muddat ichida yozma ravishda, sanasini ko'rsatgan holda Operatorga xabar qilish va amaldagi tariflar bo'yicha to'lovlar evaziga shartnomani qayta rasmiylashtirish yoki uni bekor qilish. Ijara muddati tugashi bilan yoki ijaraga berish bo'yicha shartnoma bekor qilinadigan bo'lsa, telefon aloqasi xizmatini ko'rsatish bo'yicha tuzilgan shartnoma ijaraga oluvchidan ijaraga beruvchi bepul qayta rasmiylashtirilishi mumkin. Ijaraga beruvchi ijara shartnomasini bekor qila turib, ijaraga oluvchining Operator oldidagi qarzlarini uzishini nazorat qiladi va qarzlarni mavjud bo'lgan taqdirda belgilangan tartibda javobgar bo'lib hisoblanadi.

Abonentning aloqa «Qoidalar»ini qay darajada bajarayotganini yoki abonent buyurtmasiga asosan ta'mirlash uchun kelgan Operator xodimini (agar u rasmi yopishtirilgan, korxonaga muhri bosilgan, amal qilish muddati ko'rsatilgan guvohnomaga ega bo'lsa) binoga kirishga ruxsat etish. Bunda Operator xodimida bajariladigan ishlar naryadi ham bo'lishi zarur.

Abonent uskunasi pullik xizmat ko'rsatish uchun taksofon sifatida, Internetga kirish va hokazo maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Operator tomonidan ajratilgan telefon raqamlaridan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish «Qoida»ga belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu band buzilgan taqdirda Operator Abonentning telekommunikatsiya tarmog'iga kirishini operator texnik komissiyasi tomonidan dalolatnoma tuzilib, kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Abonent tomonidan mazkur holatlar takrorlanganda shartnoma bir tomonlama bekor qilinadi.

Faqat sertifikatlangan telefon apparatlari va boshqa uskunalardan abonent uskunasi sifatida foydalanish. Muvofiqlik sertifikatini bo'lmagan, telefon raqamini avtomatik aniqlash uskunasi (AON)dan foydalanmaslik.

Abonent telefonlaridan va boshqa oxirgi qurilmalaridan amalga oshirilgan mahalliy, shaharlararo, xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun to'lovlarni to'liq 4.3 – bandga asosan amalga oshirish.

Abonentlik qurilmasini o'zboshimchalik bilan o'rnatish va parallel telefon apparatlari yoki boshqa radio aloqasi, telematik xizmatlar va axborot uzatgichlariga ulash ta'qiqlanadi. Bu qurilmalarni ulash operatorga ma'lum qilinib, muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lgach amalga oshiriladi.

Agar, Abonent tomonidan o'zboshimchalik bilan abonent liniyasiga ulangan qurilmaning ulanish vaqtini aniqlash imkoniyati bo'lmasa, abonent to'lovi joriy yilning boshidan hisoblab undiriladi.

Radiotelefonlar va boshqa radioelektron vositalar (10 mVt quvvatli simsiz telefonlar bundan mustasno) abonent qurilmasi sifatida ulangan taqdirda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish Agentligi yoki uning vakolatli organidan bu qurilmalardan foydalanishga ruxsatnoma olinishi zarur.

Telekommunikatsiya tarmoqlari ish sifatini pasaytirishga yoki ularni shikastlanishiga qaratilgan hatti-harakatlarga yo'l qo'yilmasligi zarur. Abonent «Qoidalar»da belgilab berilgan boshqa bir qator majburiyatlarga ham ega.

Abonent kursatilgan xizmatlar xakkinini tulash uchun «Tulovchiga» xar oyda xisob-varak fakturalar nusxasini yetkazib boradi.

3.13. Abonent fakatgina xarajatlar smetasida aloqa xizmatlari uchun 2022 yilda ajratilgan mablaglar doirasida shartnomaning 1.2 bandida kursatilgan (budjet xisobidan) tulovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

3.14. Abonent tomonidan budjetdan mablag oluvchiga ko'rsatiladigan telefon aloqasi xizmatlariga qonunchilik asosida belgilab beriladigan Uzbekiston Respublikasida amaldagi tariflar bo'yicha haq to'lanadi.

3.15. Telekommunikatsiya xizmatlari uchun to'lovlar, naqd pulsiz budjet tashkilotining xarajatlar smetasida kuzda tutilgan mablaglar doirasidan chikmagan xolda mazkur shartnomaning 1.2. bandidagi budjet xisobidan tulanadigan katorida kursatilgan summa asosida xar chorakning uchdan bir kismi doirasida oyma – oy tulovni amalga oshiradi.

4. XIZMATLARGA HAQ TO'LASH.

4.1. Abonent smeta xarajati mablaglari doirasida shartnomaning 1.2 bandiga binoan xar oyning 15-sanasigacha joriy oy uchun oldindan 100% tulov topshiriknomasiga asosan xizmat xakkinini tulaydi, smetada ajratilgan mablaglardan ortikcha kursatilgan xizmat uchun budjet tashkiloti uzining maxsus xisob-rakamidan tulanishi uz zimmasiga oladi.

4.2. Mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi uchun to'lovlar: oldindan to'lov (bunak) yo'li bilan amalga oshiriladi.

4.3. Oldindan bunak tariqasidagi to'lovlar kamida 1 oy oldin, lekin 12 oydan ko'p bo'lmagan muddat uchun amalga oshirilishi mumkin.

4.4. Telefon aloqasi xizmatlari uchun oldindan to'langan bunak summasi operatorning billing tizimi tomonidan quyidagi ketma-ketlikda taqsimlanib to'lanadi:

abonentlik to'lovi va qo'shimcha xizmat turlari;
hisoblagichlar;
shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlar.

Ushbu bandda ko'rsatilgan xizmatlarga tariflar oshgan taqdirda, ular bo'yicha hisob-kitoblar bunak summasi tugagunga qadar amalda bo'lgan avvalgi tariflar bo'yicha amalga oshiriladi. (Agar bu xizmatlar bo'yicha to'lovlar universal xizmatlarga tariflarning o'zgarishi to'g'risida e'lon berilishidan oldin amalga oshirilgan bo'lsa).

4.5. Mahalliy so'zlashuvlar (vaqtbay asosida to'lov tizimi joriy etilganda), shaharlararo va xalqaro telefon aloqasidan foydalanganligi uchun to'lov hisob varag'iga asosan (axborot uzatish va telematik xizmatlardan foydalanilganligi uchun to'lovlar ham shunga kiradi), hisob varag'ida ko'rsatilgan sanadan boshlab 3 bank kuni ichida amalga oshiriladi.

4.5.1. Hisob-kitob qilingan oydan keyingi oyning 10-sanasigacha abonent «Operator»ning abonentlar bo'limiga ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlari uchun hisob-varaq fakturasini olish uchun kelishi kerak, ko'rsatilgan muddatda kelmagan taqdirda telefon o'rnatilgan tartibda o'chirib qo'yiladi.

4.5.2. Abonent xohishiga ko'ra operator shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlar bo'yicha ma'lumot (rasshifrovka)ni elektron variant(fayl holati)da berishi mumkin.

4.5.3. Abonent shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlar bo'yicha ma'lumotni takroriy so'ragan hollarda undan qo'shimcha ravishda 300 so'm, agar elektron variant(fayl holati)da bo'lsa 100 so'm (har bir kompyuter varag'i uchun) olinadi. Mazkur to'lovlar aloqa xizmatlari tariflari o'zgariganida qayta ko'rib chiqiladi.

4.6. Belgilangan muddatda aloqa xizmatlari to'lovlari to'lanmаса, telefon o'chirib qo'yiladi, bunda operator shartnomani bekor qilish va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq qarzlarni undirib olish huquqiga ega.

Agar Abonent hisob-kitob davridan keyingi 2 oy davomida telekommunikatsiya xizmatlari uchun, shu jumladan, telefon o'chirib qo'yilgan vaqt uchun qarzlarni to'lamasa, Operator «Abonent» bilan kelishilgan xolda shartnomani bekor qilish va qarzlarni o'rnatilgan tartibda undirib olish huquqiga ega. Qaytadan telefon yoki boshqa oxirgi qurilmani o'rnatish ariza berilib tegishli to'lovlar amalga oshirilgach amalga oshiriladi.

4.7. Agar abonent to'lanishi lozim bo'lgan pul miqdoriga, so'zlashuv vaqti va bu so'zlashuv uning telefoniga tegishli ekanligiga norozi bo'lsa, u hisob varag'ini olgandan so'ng 30 kun davomida raddiya yozishi mumkin. 30 kundan so'ng e'tirozlar qabul qilinmaydi. Tekshiruv natijalari Abonentni qanoatlantirmasa sudga murojaat qilishi mumkin.

4.8. Ushbu shartnomaning 4.8-bandi bo'yicha tekshiruv o'tkazilayotganda telefon shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlarga chiqish kodi(8)siz ishlatib qo'yiladi.

4.9. Har oyning 1-chi kuni holatida debitor qarzdorlik mavjud bo'lsa, «Operator» qarzdorlik summasining 0,1% miqdorida to'lovning har bir kechiktirilgan kuni uchun, bu qarzdorlik to'liq undirib olinguncha qadar penya hisoblaydi.

4.10. Abonentning aybi bilan telefon yoki boshqa oxirgi qurilma ishlamagan paytda ulardan foydalanish bo'yicha abonent to'lovlari to'liq miqdorda undirib olinadi.

4.11. Xalqaro va shaharlararo avtomatik telefon aloqasidan foydalanilganda, to'lanishi lozim bo'lgan so'zlashuv vaqti so'zlashuv boshlangan vaqtdan hisobga olinadi. Telefonga ulangan biror bir texnik uskuna (faks, avtomatik javob beruvchi, raqamni aniqlovchi va hokazolar) bilan so'zlashuv amalga oshirilganda to'lanishi lozim bo'lgan so'zlashuv vaqti ana shu uskunalar ishga tushgan paytdan boshlab hisobga olinadi.

5 NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1 Nizolarni hal etish chog'ida tomonlar o'zaro kelishuvga binoan ish tutadilar.

5.2 Tomonlar o'zaro kelisha olmagan hollarda, nizolar Iktisodiy sudida hal etiladi.

TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1 Mazkur shartnomada kuzda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki tegishli ravishda bajarmaslik xolida Taraflar Uzbekiston Respublikasining amaldagi konunchiligiga muvofik javobgarlikka tortiladi.

7. Shartnomaning amal qilish muddati

7.1. Mazkur shartnoma 24 oktaber 2022 yildan 31 noyabr 2022 yilgacha amalda buladi.

7.2. Shartnoma taraflar imzolab uz muxrlari bilan tasdiklaganlaridan sung kuchga kirgan xisoblanadi.

7.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib bir xil yuridik kuchga ega bulib xisoblanadi va tomonlarning xar biri uchun bir nusxadan beriladi.

7.4. Shartnoma muddatidan oldin kuyidagi xollarda bekor kilinishi mumkin

- tomonlarning kelishuviga muvofik
- Uz.R. konunchilik xujjatlarida nazarda tutilgan xollarda.

8. Nizolarni xal kilish

9.1. Taraflar shartnomada kursatilgan majburiyat va shartlarni bajarmagan takdirlarida Uz.R. Fukarolik kodeksi va Xujalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xukukiy bazasi tugrisi dagi konuni xamda boshka konun xujjatlari asosida javobgar buladilar.

9.2. Taraflar urtasida kelib chikadigan nizolar uzaro kelishuv asosida agar taraflar kelisha olmasalar nizolar Uz.R. Xujalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xukukiy bazasi tugrisi- dagi konunga va Fukarolik kodeksiga asosan xujalik sudi tartibida xal kilinadi.

9.3. Kelishmovchiliklar yuzaga kelgan takdirda barcha masalalar ikki tomonlama muzokaralar yuli bilan xal kilinadi kelishish imkoni bulmaganda esa Kashkadare viloyat Iktisodiy sudida xal kilinadi.

9. Boshka shartlar

10.1 Mazkur shartnomaning kiritiladigan barcha uzgartirish va kushimchalar yezma shaklda tuzilishi va xar ikkala taraflar orkali imzolanishi kerak.

10. Tomonlarning yuridik manzillari va bank rekvizitlari

Ijrochi
Chirokchi Telekommunikatsiya bog'lamasi
(ijrochining nomi)
Manzili Mustakillik-2


tel/faks : 56-21-412
x/r: 20210000504074838334
Bank nomi: Karshi.sh AT "Alokabank"
Kashkadaryo filiali
MFO: 00401 STIR: 203366731
OKED : 61100

Buyurtmachi
Тароққи тумани АКМ
(budget mablag'larini oluvchi nomi)
manzili Мустақиллик-78

tel/faks 56-21-893
sh/x* 100022860102427042102134001
Bank nomi Тароққи. Микрокредит Банк
x/v**

MFO 00145 STIR 306705138
OKONX 92100
Gaznachilik bulinmasi nomi
Тароққи тумани Фазилатлик бўлинмаси
Gazna x/v 23402000300100001010
Bank nomi Тошкент ш. Марказий Банк
MFO 00014
Gaznachilik bulinmasi STIRi 201422915


Raxbar K.B. Turayev



(imzo)

Raxbar A. Keydarova

(F.I.SH)



MU

(imzo)

Yuridik xulosa:

«Uzbektelekom» AKning Kashkadaryo filiali xamda Тароққи тумани АКМ tashkiloti urtasida jami: 60000 summasida tuzilgan aloka xizmati kursatish buyicha 2022 yil «24» dekabr dagi tuzilgan shartnoma Uzbekiston Respublikasi «Xujalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi tugrиси» dagi Konun va Fukarolik kodeksi talablari asosida tuzilgan.
-Shartnoma talablari Uzbekiston Respublikasining amaldagi konunlariga javob beradi.
-Shartnoma majburiyatlari buzish xolatlari buyicha javobgarlik va nizolarni xal etish choralari amaldagi konun xujjatlari talablariga javob beradi. Xukukshunos P. Xayrullayev

